




Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

**Выпуск №26 (том 7)
(май, 2022)**



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №26 (том 7) (май, 2022).**

Дата выхода в свет: 31.05.2022.

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

СОДЕРЖАНИЕ

Название научной статьи, ФИО авторов	Номер страницы
ДОПОЛНИТЕЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ	
«SUVNI TEJASH TEXNOLOGIYALARINI MASOFADAN BOSHQARISH VA RAQAMLASHTIRISH» Quchqorov Aslbek Otabek o'g'li	23
«KO'MIR YOQILG'ISI TUTUNINI TOZALASH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH» Jo'rayev Murodali To'yboy o'g'li	28
«HAR XIL MIKROSKOPIK YADRO-YADROVIY O'ZARO TA'SIRLAR DOIRASIDA QO'SHILISH KESIMLARINING QIYOSIY TAHLILI» Mardonov Nodirbek Aziz o'g'li	32
«UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI» Sobirova Iroda Murodovna, Sultonova Karomat Kamilovna	35
«O'ZBEKISTONDA HUQUQIY DAVLATNING QURILISHI» Abdurasulov Abdulaziz Abdurashid o'g'li	40
«ҚАРАҚАЛПАҚ МИЛЛИЙ МУЗЫКА ДЭСТУРЛЕРИНИНЦ РУЎХЫЙ, МЭНАЎИЙ ТЭРБИЯЛАЎШЫ МҮМКИНШИЛИКЛЕРИ» Аллиярова Маржан, Гулчира Ходжаметова	42
«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KADASTR TIZIMI ME'YORIY HUJJATLARINING BUGUN XOLATI VA RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI» Jasurbek Darmonov	48
«KADASTR TIZIMIDA AXOLI XUJJATLARINI SHAKLLANTIRISHNING UMUMIY XOLATI» Darmonov Jasurbek Miradilovich	53
«ПУБЛИЦИСТИКА ТУРЛАРИ ВА ЖАНРЛАРИ» Мухтор Худойкулов, Зухраhon Раҳимова Махмудовна	57
«ЎЗБЕКИСТОНДА МУҲАНДИСЛИК ВА ИЖТИМОИЙ ИНФРАТУЗИЛМА: РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ» Ўролов Хумоюн Эркин ўғли	61
«CHIZIQSIZ DASTURLASH MASALALARINING GRAFIK USULDA GEOMETRIK TALQINI» O'tanazarova Yulduz Ravshan qizi	68
«“GO‘RO‘G‘LI” ROMANIDA MODERNIZM ALOMATLARI» Hamroqulova Gulzahro Aminjonovna	75

«O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOYILLARINI JORIY QILISH MASALALARI» D.Sh.Yavmutov, K.S.Karimova	495
«МЕТОДЫ И ПРИЁМЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК НЕРОДНОМУ» Истамова Мохинисо Ниёзовна	503
«МАКТАВГАЧА ТА'LIM O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH» Рахматуллаева Зухра Рахматуллаевна, Азимова Саодат Шербойевна, Отамуродова Нигора Набиевна	519
«С.В.РАХМАНИНОВ ФОРТЕПИАНО ВА ОРКЕСТОР УЧУН КОНЦЕРТЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ШАКЛИЙ ТУЗИЛИШИ» Муродов Шахром Мустафо ўғли	523
«ВАЖНОСТЬ АНАЛИЗА УРОКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ» Садикова Шахло Нуриддиновна	527
«РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ И КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ (ИКТ) В ОБРАЗОВАНИИ» Усманова Азиза Шухратовна	531
«USTA OLIM KOMILOV IJODIGA BIR NAZAR» Safarov Farrux Faxritdinovich	534
«SAN'ATIMIZ DARG'ALARINING G'IJJAK SOZIDA IJRO QILGAN BENAZIR ASARLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JHATLARI» Mirzaahmedov Abduvohid Abdurahobovich	538
«ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF CENTRALIZED AND DECENTRALIZED HEAT SUPPLY SYSTEMS» Davronov Ismat Zokir ugli	544
«LOCAL BOILERS AND FOSSIL FUELS» Davronov Ismat Zokir ugli	551
«МАКТАБЛАРДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ О'ҚИТИШ ЖАРAYONIDA КОММУНИКАТИВ ТЕХНИКАДАН FOYDALANISH» Jumayeva Manzura Tojiboyevna	558
«ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR "DEVON"NING O'RGANILISH TARIXI HAQIDA» Shomurodova Dilshoda Ilyos qizi	562
«FARG'ONA VILOYATI ETNOTOPONIMLARINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI VA ETIMOLOGIK TAHLILI» Tojiboyev Munavvarjon No'monjonovich	565
«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOQILG'I ENERGETIKA TIZIMINI IQTISODIY O'RNI» D.X.Suyunov, Maxsudov Muzaffar Ikromjon o'g'li	576

ФИО авторов: *D.Sh.Yavmutov* – ВухДУ, Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.n., dotsent.

K.S.Karimova – UrDU Geografiya mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.

Название публикации: «O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA “YASHIL IQTISODIYOT” TAMOYILLARINI JORIY QILISH MASALALARI»

УДК 338.22

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы внедрения механизмов зелёной экономики в экономику Узбекистана. Проанализирована правовая основа в республике и отрасли экономики по уровню внедрения зелёных механизмов. Изучены промышленный, сельскохозяйственный и водный отрасли и городская инфраструктура.

Annotation. The article discusses the issues of introducing green economy mechanisms into the economy of Uzbekistan. The legal framework in the republic and the sector of the economy was analyzed in terms of the level of implementation of green mechanisms. Studied industrial, agricultural and water industry and urban infrastructure.

Kalit so'zlar. Yashil iqtisodiyot, iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, mintaqalar, yashil iqtisodiyot tamoyillari, atrof muhitni muhofaza qilish, strategiya, sanoat rivojlanishi, quyosh energiyasi, fotoelektr stansiyasi, energiyadan samarali foydalanish, iqtisodiyotni yashillashtirish.

Ключевые слова: Зелёная экономика, экологизация экономики, регионы, принципы зелёной экономики, охрана окружающей среды, стратегия, развития промышленности, солнечная энергия, фотоэлектрическая станция, эффективное использования энергии, озеленения экономики.

Keywords: Green economy, ecologization of the economy, regions, principles of green economy, environmental protection, strategy, industrial development, solar energy, photovoltaic plant, efficient use of energy, greening the economy.

Barqaror rivojlanishning asosiy maqsadlaridan biri tabiat va uning boyliklarini nafaqat bugungi avlodga yetkazish, balkim, kelgusi avlodga ham asrab-avaylagan holda yetkazishdan iborat. Barqaror iqtisodiy o'sishga to'liq erishish kundan-kunga dolzarblik kasb etib boradi. Bu ishlab chiqarishning pasayib ketishi, aholining iste'mol darajasining kamayishi, muammoli hududlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq holda jamiyatning inqirozli vaziyatlarini yuzaga keltirish oqibatida barqaror rivojlanish uchun yangi g'oyalar va tamoyillarni shakllantirish asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni asoslarini yaratishni talab qiladi.

Jahon iqtisodiyoti va uning ayrim davlatlari, mintaqalari iqtisodiyotining faoliyati samaradorligi hozirgi zamonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilgan holda barqaror iqtisodiy rivojlanish muammolarining yechimi bilan uzviy bog'liq. Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish pirovard natijada ekologiya va iqtisodiyotning rivojlanishidagi muammolarning uzviy bog'liqligi namoyon bo'luvchi yangi yo'nalishni, yangi fanni – Yashil iqtisodiyotni yuzaga keltirdi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish zamonaviy dunyoda har bir mamlakat va uning mintqalarining samarali rivojlanishida davlat siyosatining uzviy bir qismi bo'lib, davlat boshqaruvining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. Har bir mamlakatda uning mintaqalari o'zlarining hozirgi qaysidir rivojlanish bosqichlarida yashil iqtisodiyotning ma'lum bir yo'nalishiga ustunlik beradi. Mamlakat mintaqalarida yashil iqtisodiyotning joriy qilinganlik darajasi uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, raqobatbardoshligini ko'rsatib beruvchi omillardan biriga aylandi.

Yashil iqtisodiyotning joriy qilinganlik darajasi mintaqalar va mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilab berar ekan, albatta har bir mamlakat va uning mintaqasi ishlab chiqarishning ushbu bosqichiga o'tishini talab etadi. Mamlakat va uning mintaqalarida yashil iqtisodiyotni joriy qilish ularning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy rivojlanishini belgilab berar ekan, har bir mintaq va mamlakat ushbu bosqichga tezroq va samarali tarzda o'tishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari to'liq tadqiq etilmagan. Mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotning joriy qilishning nazariy-ilmiy asoslarini hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqish mazkur masalaning dolzarb mavzuligini namoyon qiladi.

Mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish yangi yo'nalish bo'lib, asosan 2017 yildan keyin e'tibor qaratila boshlandi. Mazkur yo'nalishda huquqiy-me'yoriy asoslar ham yaqin o'tmishdan shakllanib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda 2017 yil 26 maydagi PQ 3012 sonli "2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi Qarori, 2019 yilning 30 oktyabridagi PF-5863 sonli "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 oktyabrdagi PQ-4477 sonli "O'zbekiston Respublikasining 2019-2030 yillarda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari shular jumlasidan. Mazkur hujjatlarda yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston iqtisodiyotining strategik yo'nalishlaridan ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

“O‘zbekiston Respublikasining 2019-2030 yillarda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish Strategiyasida asosiy yo‘nalishlar sifatida quyidagilar belgilangan:

Iqtisodiyotning quyidagi bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha:

elektro energetika sohasida: amaldagi elektr stantsiyalarining mavjud quvvatlarini bug‘-gazli va gaz-trubinali qurilmalarni o‘rnatish, jarayonlarni to‘liq avtomatlashtirish va nazoratlarni raqamlashtirish orqali rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish;

issiqlik energetikasi sohasida: issiqlik energiyasini ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarni joriy qilish, qozonxonalardagi eskirgan texnologiyali uskunalarni rekonstruktsiya qilish, yangi hisoblash uskunalari bilan modernizatsiya qilish, qozonlarda suvni qizdirishda geliokollektorlardan foydalanish tizimlarini qo‘llash;

neft-gaz sohasida; kompressor stantsiyalari, past va o‘rta bosimli gaz taqsimlash tizimlarini modernizatsiya qilish evaziga tabiiy gazni qazib olish, tashish va qayta taqsimlash jarayonlaridagi yo‘qotishlarni qisqartirish, shuningdek, uglevodorodlarni yo‘qotishni nazorat qilish (SCADA) tizimlari kabi samarali tizimlarni joriy qilish, neft va gaz qazib oluvchi ob‘ektlarda muqobil energiya manbalaridan foydalanish;

Energiya resurslari iste‘molini diversifikatsiya qilish va tiklanuvchi energiya manbaalaridan foydalanishni rivojlantirish bo‘yicha:

tiklanuvchi energiya manbalari sohasida: qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olinadigan energiyalarni ishlab chiqarish, tashish, sotib olish bilan bog‘liq tarif siyosatini liberallashtirish, bunday manbalardan foydalanuvchi uskunalarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash;

binolarni qurish va ekspluatatsiya qilish sohasida: binolarning energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha davlat dasturlarini joriy qilish, qaysikim, o‘z ichiga ko‘p qavatli uy-joylarni rekonstruktsiya qilish, qurilish me‘yorlarini kamida har 5 yilda bir marta qayta ko‘rib chiqish, energiya samaradorlik talabalarini qat‘iylashtirib borish tizimi orqali issiqlik bilan ta‘minlashning yopiq tizimlarini joriy qilish, energiyani tejash borasida rag‘batlar tizimini qo‘llash, ijtimoiy sohada energiyadan samarali foydalanganlikni rag‘batlantiruvchi tariflarni joriy qilish;

transport sohasida: Yevro-4 standartlari doirasida energiya samaradorligi va ekologik tozalik yo‘nalishlarida yaxshilangan tavsiflarga ega avtotransport vositalarini, elektromobillarni, gibrid dvigatelli avtomashinalarni ishlab chiqarishni kengaytirish, uglevodorodli yonilg‘ilardan bosqichma-bosqich voz kechish, elektr transport tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish, yangi transport va logistika tizimlarini yaratish, yo‘l infratuzilmasini yaxshilash;

Iqlim o‘zgarishlari oqibatini yumshatish va unga moslashish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekosistemalarni saqlab qolish bo‘yicha:

suv xo‘jaligi sohasida: yerning yanada sho‘rlanishi va sifatining yomonlashishining oldini olish, gidrotexnik inshootlar, nasos stantsiyalar va suv

omborlari qurish hamda rekonstruktsiya qilish, bunda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni va innovatsiyalarni suv xo'jaligida keng qo'llash, qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda energiya samarali va suvni tejovchi texnologiyalarni qo'llash;

qishloq xo'jaligi sohasida: degradatsiyalangan yaylovlarni tiklash, qishloq xo'jalik ekinlarini diversifikatsiyalash, suv manbalarini qishloq xo'jalik chiqindilari bilan ifloslanishini bartraf qilish, o'simlik va hayvonlarning sho'rlanishga, qurg'oqchilik, iqlim injiqliklari kabi notabbiy jarayonlarga, xavflarga chidamli va mos navlarini hamda zotlarini yaratish;

qattiq maishiy chiqindilar sohasida: qattiq chiqindilarni yig'ib olish va zararsizlantirish xizmati bo'yicha aholining barcha qatlamini to'liq qamrab olish, qattiq chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash borasida zamonaviy va samarali tizimlarni joriy qilish, qattiq maishiy chiqindilarni muqobil energiya manbalari sifatida ishlatish [2].

2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining "Atrof muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasi"da iqtisodiyotni ekologiyalashtirish sohasida quyidagilar mamlakatda yuzaga kelgan ekologik muammolarning yechish yo'llari sifatida belgilangan:

- resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, "yashil infratuzilma"ni yaratish;
- milliy iqtisodiyotni suvdan tejab foydalanish, qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini rivojlantirish va keng qo'llashni rag'batlantirishga yo'naltirib o'zgartirish, shuningdek, yuqori energiya samarador standartlar asosida inshootlar barpo etish;
- ekologik jihatlarning davlat sektoral siyosatiga, shu jumladan rejalar, dasturlar va boshqa strategik hujjatlarni strategik ekologik baholash mexanizmini joriy etish, shuningdek, alohida loyihalarning atrof muhitga ta'sirini baholash orqali integratsiyalashuvini ta'minlash;
- ekotizimlarning qayta tiklanish imkoniyatlari va potentsial sig'imini baholash parametrlarini ishlab chiqish hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirishda ushbu parametrlarni hisobga olish tartib-taomilini joriy etish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini ekologik sug'urtalash va ekologik auditdan o'tkazish tizimini tatbiq etish;
- atrof muhitning sifatini belgilovchi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha xalqaro standartlarga (BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Yel va boshqalar) o'tishni ta'minlash;

- davlat xaridlarini amalga oshirishda ekologik standartlarni qo'llashni kengaytirish [3].

Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlanishini tahlil qiladigan bo'lsak, bunda ham holat quvonarli emasligini ko'ramiz. Manbalarda iqtisodiyot tarmoqlarida yashil iqtisodiyotning qay darajada ekanligini tahlil va tadqiq qilishda dastlabki ko'zga tashlanadigan muammolardan biri shuki, bunda ma'lumotlarning oshkoraligi patligi hamda bu yo'nalishda ma'lumotlarning deyarli yo'qligi sababli tadqiqotlar kamligini izohlash mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash zarurki, yashil iqtisodiyot davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ekan, yuritilayotgan moliyaviy, iqtisodiy va boshqa hisobotlarda, statistikalarda iqtisodiyotni yashillashtirish jarayonlari bilan bog'liq ma'lumotlarni ham alohida yuritish amaliyotini keng joriy qilish zarur. Quyida biz mavjud ma'lumotlar asosida iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida yashil iqtisodiyot holatini tahlil qilishga harakat qildik.

Sanoat O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sanaladi. 2021 yil yakunlari bo'yicha sanoat O'zbekistonning YaIMdagi ulushi 27,8 foizni (joriy narxlarda 136,1 trln. so'm) tashkil etdi. So'nggi yillarda ushbu tarmoqning nafaqat ahamiyati, balkim, ko'lami ham kengayib bormoqda. 2017 yilda sanoat YaIMda 22 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yil yakunida 27,8 foizga yetdi [4]. Shu bilan birga, mamlakatda sanoat tarmoqlarining yangi yo'nalishlari ham shakllanib bormoqda.

O'zbekiston sanoat rivojlanishi yuqori intensivlikda bo'lmagan mamlakatlardan hisoblanishi bilan birga mazkur tarmoqda yashil iqtisodiyot darajasi past shakllangan mamlakatlardan sanaladi.

Respublikada sanoatning ko'lamini kengaytirish bilan bir qatorda uni yashillashtirish, ekologiyalashuv yo'nalishida rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud.

Shunday yo'nalishlardan biri bu quyosh energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqarishdir. 2021 yilning 27 avgust kuni Navoiy viloyatida O'zbekistonda birinchi quyosh elektr stantsiyasi ishga tushirildi. Uning quvvati 100 mVt. Mazkur korxonaga yiliga 252 mln. kilovat elektr energiya ishlab chiqaradi. Mazkur inshoot bir yilda 80 mln. kub metr tabiiy gaz iste'molini tejash bilan birga atmosferaga chiqadigan issiqxona gazlarining 160 ming tonnaga kamayishiga asos bo'ladi.

2022 yilning 24 may kuni Samarqand viloyatining Nurobod tumanida Fransiyaning Total Eren kompaniyasi tomonidan qurilgan 100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stantsiyasi ishga tushirildi. Elektr stantsiyasi yiliga 260 mln kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi va 80 mingdan ortiq xonadonni elektr energiyasi bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari, stantsiyaning ishga tushirilishi yiliga 78 mln kub metr tabiiy gazni tejash va atmosferaga 100 ming tonna zararli chiqindilar chiqishining

oldini oladi. Bu miqdorda tejalgan gaz 10 kun ichida mamlakatimizdagi barcha xonadonlarni tabiiy gaz bilan ta'minlaydi [6].

O'zbekiston quyosh energiyasiga boy mamlakat hisoblanadi, bu yerda 525-760 mlrd. kVt/soatlik potentsial jamlangan. Ushbu potentsialni inobatga olib qayta tiklanuvchi manbalar hisobiga elektr energiya ishlab chiqarishni 2018 yildagi jamiga nisbatan 10 foizdan 2030 yilga borib 25 foizga yetkazish ko'zda tutilgan [2].

Energiyani samarasiz ishlatish oqibatida O'zbekiston YaIMida har yili 4,5 foiz yo'qotishga uchramoqda. Mamlakat energiya tashuvchi tizimlari samarasiz ishlatilishi natijasida YaIMdan yiliga 4,5 foiz ulush yo'qotilmoqda. Yo'qotishlar asosan elektr energiyasini ishlab chiqarishda, binolarni isitishda ko'p kuzatilmoqda. O'zbekistondagi bunday quvvatlarning qariyb 40 foizi o'z muddatini o'tab bo'lgan va oqibatida elektr ta'minotida ko'plab uzilishlar kuzatilmoqda [1].

Ekspertlarning fikricha, hozirda energiyadan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi siyosatning yo'qligi sababli O'zbekiston 2030 yillarga borib neft va gaz qazib olish va eksport qilishda katta qisqarishlarga uchraydi va asosan ko'mirga bog'lanib qoladi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalari potentsiali 270 million shartli yoqilg'ini tashkil qiladi, bu o'z navbatida mamlakatning energiya tashuvchi resurslarga bo'lgan yillik ehtiyojidan 3 marta ortiqdir. Bu potentsialning katta qismi quyosh energiyasiga to'g'ri keladi. So'nggi o'n yillikda quyosh energiyasining tannarxi jahon bozorida 80 foizga pasaydi, O'zbekistonda bu ko'rsatkich quyoshli kunlar ko'pligi, osmoning musoffoligi bois, yanada arzonroq bo'ladi [1].

Sanoatda asosan ximiya va tog'-kon sanoati ishlab chiqarishi ustunlik qilgani bois, butun respublika energiya iste'molining chorak qismini va tabiiy gazning deyarli barcha qismini ushbu tarmoqlar iste'mol qilishadi. Sanoat sektorining oldida nafaqat chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitga yetkazilayotgan zararni qisqartirish, balkim, o'ta toza ishlab chiqarish, innovatsiyalar va kadrlar salohiyatini talab qiluvchi global sanoat tizimidagi shiddatli o'zgarishlarga ham tezkor javob qaytara olishi kerak.

Hozirda mamlakatda sanoatni xom ashyo eksporti yo'nalishidan yuqori sifatli mahsulotlar qayta ishlash, ishlab chiqarish va eksport qilish yo'nalishiga o'tkazishni rag'batlantiruvchi soliq va tariflarni shakllantirish va qo'llash siyosati davom etmoqda.

Qishloq xo'jaligi va yer-suv resurslaridan foydalanish sohasi O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilish imkoniyatlari bo'lsada, bu borada eng kam ishlar amalga oshirilgan tarmoqlardan sanaladi. O'zbekiston jahonning 25 ta suv tanqisligi kuchli davlatlar qatoriga kiradi. Suvdan samarasiz foydalanish hamda qishloq xo'jaligini nooqilona yuritish oqibatida yerlarning degradatsiyasi kuchayib, hosildorligi pasayib, sho'rlanganlik darajasi ortib bormoqda. Bundan tashqari O'zbekiston tuproqlari Orol dengizi halokati doirasida zaharli changlar bilan ifloslanib bormoqda [3].

Mamlakat aholisining faqat 73 foizi toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Sanitar jihatdan talabga javob beruvchi ichimlik suvi barcha hududlarda teng taqsimlanmagan. Oqova suvlarni boshqarish va ulardan takror foydalanish darajasi ham yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Aholining 15,6 foizi markazlashgan kanalizatsiya tizimiga ulangan, bu raqam ancha pastligini ko'rishimiz mumkin. 2030 yilda ushbu ko'rsatkichni 31,4 foizga chiqarish rejalashtirilgan. Oqova suvlarni tozalash inshoatlari va ularda qo'llanilayotgan texnologiyalar eskirganligi bois, bunday tizimlarning foydalanish samaradorligi 55 foizni tashkil qilmoqda.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i iqtisodiyot tarmoqlari orasida o'zining umumiy hajmi bo'yicha 26,2 foiz ulush bilan 3-o'rinda turadi, o'sish sur'ati ham qoniqarsiz ahvolda. 2022 yilning yanvar-mart oylarida O'zbekistonda YaIM 5,8 foizga, sanoat 1,7 foizga, xizmatlar 2,9 foizga o'sgan vaqtda qishloq xo'jaligi atigi 0,9 foiz o'sishga erishgan va bu borada eng oxirgi o'rindagi tarmoq sanaladi.

Yaylovlarning to'rtidan uch qismi turli darajada degradatsiyalashgan. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning hosildorligi so'nggi 25 yilda 2 baravarga pasaygan. Ozuqa ekinlarining hosildorligi 1 gektarda yiliga o'rtacha 2 foizga kamayib bormoqda.

Qishloq xo'jaligini yashillashtirish maqsadida 2016 yildan keyin boshlangan islohotlar bandlik, hosildorlik, suv sarfi, daromadlilik yo'nalishlarida o'zining samarasini ko'rsatishi mumkin. Qishloq xo'jaligida ish jarayonlarining avtomatlashmagani hamda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi pastligi bois sohada eng ko'p ishchilar band. Qishloq xo'jaligini yashillashtirish tarmoqda yangi yo'nalishlarda ish o'rinlari yaratilishiga sabab bo'ladi.

Shahar infratuzilmasi yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirishligi zarurligi bo'yicha eng muhim yo'nalish sanaladi. Hozirda O'zbekiston shaharlari ekologik holatining darajasi bo'yicha murakkab vaziyatdagi shaharlar hisoblanadi. Shaharlarda energiyadan foydalanish samaradorligi, chiqindilarni oqilona boshqarish tizimi, jamoat transportini yaxshilash, yashil infratuzilma va yashil jamoatchilik hududlari tashkil qilinganligi shaharlarning ajralmas qismi sanalib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy obodligining darajasini belgilab beradi.

Shaharlarda qulay va sifatli yashash va ishlash muhitining yaratilganligi ularda aholining ijtimoiy ishlab chiqarishining hamda iqtisodiy faolligining muhim garovidir. Shaharlarda qulay muhitni yaratish esa bu milliy rejalashtirish va shahar rejalashtirish darajalarining o'zaro integratsiyalashgan bo'lishi, mos kelishi, bu rejalashtirishlar yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan bo'lishi kerak, qaysikim, o'zida so'nggi yillarda tabiatda global darajada kuzatilayotgan o'zgarishlar, iqlim buzilishlarining ta'sirini yumshatishga qaratilgan, raqamlashtirishni rag'batlantiruvchi yo'nalishlar bo'lishi shart.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish darajasi qoniqarli

emas. Bu borada ishlar boshlangan, biroq tarmoqlar va mintaqalar, hududlar doirasida turli darajada va bosqichlarda bormoqda. Eng asosiysi mamlakatda iqtisodiyotni yashillashtirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Buning uchun ushbu yonalishlarda ilmiy izlanishlarni ko'paytirish, sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish, mazkur yo'nalishlardagi faoliyat va ishlab chiqarishni rag'batlantirib borish mexanizmlarini joriy qilish zarur bo'ladi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Yavmutov D.Sh., Jo'rayev A.T.. O'zbekistonda sanoatni yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish masalalari. "Sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining raqamli transformatsiyasi: tendensiyalar, boshqaruv, strategiyalar". Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Buxoro. 2022 yil 2-3 mart. – B. 15-17.

2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 4 октября 2019 года №ПП-4477 «Об утверждении стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019-2030 годов». <https://lex.uz/ru/docs/4539506>

3. Дорожная карта по реализации Концепции защиты окружающей среды Узбекистана на период 2019-2021 (Указ Президента №5893 от 30 октября, 2019)

4. 2021 yilda O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish. O'zbekiston Respublikasida Davlat Statistika qo'mitasi. Toshkent.; 2022. – 28 b.

5. Samarqand viloyatida yirik quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. <https://kun.uz/uz/news/2022/05/25/samarqand-viloyatida-yirik-quyosh-fotoelektr-stansiyasi-ishga-tushirildi>.